Crescent Rating Singapurda tegishli kompaniya bo'lib, dunyodagi yetakchi halol turizm va musulmon sayyohlar uchun qulayliklarni baholash bo'yicha reyting agentligi hisoblanadi. U turizm xizmatlarini musulmon sayyohlarga mosligini baholash uchun maxsus mezonlarni ishlab chiqqan va ushbu sohada xalqaro e'tirofga ega. Mamlakatimizda o'tkazilgan 2022-yil ziyorat turizmi haftaligida Xiva shahri 2024-yil Islom dunyosining turizm poytaxti deb e'lon qilindi. Samarqand "Yilning eng yaxshi islomiy manzili" deya e'tirof etildi. Turizm xizmatlari va musulmon mehmondo'stligi talablari bo'yicha standartlar ishlab chiqildi. Jumladan, ziyorat turizmi sayyohlari uchun umumiy ovqatlanish maskanlari, restoranlar va joylashtirish vositalariga "halol", "kosher" va "vegan" standartlari joriy qilinmoqda. Infratuzilmani ziyorat turizmiga moslashtirish yuzasidan boshlangan ishlar natijasida O'zbekiston GMTI (Global Muslim Travel Index) hisobotida har yili top 20 talik ro'yxatdan joy olib kelmoqda.

Crescent Rating kompaniyasining Mastercard bilan hamkorlikda 2024-yil uchun tuzgan reytingida halol turizm uchun eng qulay musulmon mamlakatlari ichida O'zbekiston 14-o'rinni egalladi. Bu ro'yxatda Malayziya birinchi, BAA ikkinchi, Indoneziya uchinchi o'rinni egallagan [13].

O'zbekiston turizm bozori aynan ziyorat turizmi maqsadida keluvchilarga bugungi kunda alohida e'tibor qaratmoqda. "Halol sayohat" bo'yicha Crescent Rating tashkiloti tomonidan 2017-yilda tuzilgan reytingda O'zbekiston 28-pog'onani egallagan edi. Reytingda mamlakatimiz "xavfsiz sayohat" (100 dan 84 ball), "ibodatxonaga kirish erkinligi" (80), "ovqatlanish imkoniyatlari va kafolatlari" (70) yo'nalishlarida yuqori baholangan. Ammo "viza" (50), "aeroport imkoniyatlari" (48,3), "oilaviy ta'til" (44,4), "yashash sharoitlari" (33,2), "musulmonlar uchun imkoniyatlar" (25), "sayyohlarning kelishi" (21,2), "kommunikatsiya imkoniyatlari" (19) yo'nalishlarida o'rta va quyi darajalarni egallagan. Bugungi kunga kelib, ziyorat turizmi ko'rsatkichlari bo'yicha O'zbekiston turizm bozori Crescent Rating ro'yxatida 140 ta davlat ichida 14-o'rinni egallagan. Crescent Rating musulmon turizmiga ixtisoslashgan guruh ma'lumotlariga ko'ra, hozirda musulmon sayyohlar segmenti oshib bormoqda. 2026-yilga kelib, sayyorada islom diniga e'tiqod qiluvchi sayyohlar soni 230 millionga yetadi.

2019-yil uchun Global Muslim Travel Index (GMTI) reytingiga ko'ra, O'zbekiston sayyohlik jozibadorligi bo'yicha IHTga a'zo davlatlar TOP 10 taligidan joy olgan. Hisobot GMTI tomonidan Singapurda joylashgan Crescent Rating va Mastercard bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan. TOP 10 taligiga Saudiya Arabistoni, Turkiya, Malayziya, Birlashgan Arab Amirliklari va Indoneziya kabi musulmon davlatlari ham kirgan. GMTI reyting uchun to'rtta ko'rsatkichdan foydalanadi, ya'ni kirish, aloqa, atrof-muhit va xizmatlar. Ushbu to'rtta ko'rsatkich O'zbekistonda ziyorat turizmini tahlil qilish uchun vosita sifatida ishlatiladi. Xizmat reytingiga asosiy ehtiyojlar (halol oziq-ovqat va ibodatlar), asosiy xizmatlar (mehmonxonalar, aeroportlar) hamda malakali xizmat ko'rsatish va servis darajasi kiradi.

NTB (Nusa Tenggara Barat) Indoneziyaning mintaqaviy hukumati tomonidan amalga oshirilgan tezkor harakatlar qatorida 2016-yil 2-sonli halol turizmga oid mintaqaviy nizom (Perda) ishlab chiqilgan. Mintaqaviy nizomning muhim jihatlari qatorida islom qoidalari turizmi ko'lamini tartibga solish kiradi, bu yo'nalishlar, marketing va reklama, sanoat, muassasalar, yo'l-yo'riq, nazorat hamda moliyalashtirishni o'z ichiga oladi. Shuningdek, tartibga solish halol turizm yo'nalishlari rahbarlaridan halol turizm faoliyatining qulayligini qo'llab-quvvatlovchi jamoat obyektlarini, jumladan, musulmon sayyohlar ibodat qilishi uchun joylar va jihozlar, shuningdek, islom qoidasi me'yorlariga javob beradigan tozalash inshootlarini qurishni talab qiladi. Indoneziyada halol sayyohlik yo'nalishi deb e'lon qilinganidan beri Lombok mahalliy va xorijiy sayyohlarni qabul qilishda jadal rivojlandi. Mamlakatda Nusa Tenggara Barat Perda halol turizm nizomi ishlab chiqilgandan keyin turistlar tashrifi 50% ga o'sgan.

Yurtimizda mavjud ziyorat turizmi bevosita islom dini bilan bog'lanadi, shuningdek, uning rivojlanishiga xalqaro islomiy turizm ko'rsatkichlari ta'sir o'tkazadi. Shunday ekan, ziyorat turizmini rivojlantirish uchun xorij tajribasini o'rganishda aynan islomiy turizmni rivojlantirgan mamlakatlar metodini o'rganish maqsadga muvofiq. Islomiy turizm bozori halol mahsulotlarning xilma-xilligi, daromad darajasi, joylashuvi va etnik kelib chiqishi bilan ajralib turadi. Aynan shu jihatlari IHT (Islom hamkorlik tashkiloti)ga a'zo mamlakatlarda ziyorat turizmi faolligini oshirishda to'sqinlik qiladi. 2-rasmda IHT doirasida ziyorat turizmi rivojlanishini cheklaydigan muammolar keltirilgan. IHTga a'zo mamlakatlar orasida islomiy turizmni rivojlantirishda katta yutuqlarga erishgan davlatlar qatorida Malayziyani misol qilib keltirish mumkin. Malayziyada islomiy turizm taraqqiyotining o'ziga xos jihatlari mavjud bo'lib, ularning bir qatorini mamlakatimizda tatbiq etish mumkin (2-rasm) [14].



Yagona standart va sertifikatlash tizimi yo'qligi	• Islomiy turizm sanoati uchun yagona xalqaro halol standart va sertifikatlash tartibimavjud emas
Moliyaviy cheklovlar	• Yangi rivojlanayotgan segment sifatida yetarlicha moliyaviy resurslarga ega emas
Qadriyat va e'tiqod ta'siridagi farqlar	• IHT mamlakatlarida bu borada sezilarli farqlar mavjud va bu farqlar turizmni rivojlantirish siyosatida ham o'z aksini topadi
Jins	Aksariyat musulmon mamlakatlarda ayollarning turizm sohasida bandligi muammo hisoblanadi va ba'zi mamlakatlarda yolg'iz sayohat qilishlari taqiqlanadi

2-rasm IHT ga a'zo mamlakatlar doirasida ziyorat turizmi rivojlanishini cheklaydigan omillar

Malayziyada turli irq, millat va dinlarga mansub aholi istiqomat qiladi, ammo aholisining asosiy qismini islom diniga e'tiqod qiluvchilar tashkil etadi. Ilmiy adabiyotlarda Malayziyada rivojlantirilayotgan turizm "islomiy turizm" atamasi bilan ifodalanadi, ya'ni Malayziyadagi turizm musulmonlarga mos bo'lgan, maxsus standartlarga ega bo'lib, turizmning ushbu ko'rinishini ziyorat turizmining maxsus yo'nalishi sifatida ifodalash maqsadga muvofiq. Ziyorat turizmi har bir din vakili uchun alohida yo'nalishlarni nazarda tutadi (masalan, nasroniylar uchun cherkovlarni, buddistlar uchun budda ibodatxonalarini, musulmonlar uchun masjid va boshqa ziyoratgohlarni ziyorat qilish va u yerda ma'lum diniy marosimlarni amalga oshirishdan iborat). Shundan kelib chiqib, Malayziyada musulmonlar uchun maxsus tashkil qilinadigan islomiy turlar ziyorat turizmining yirik yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilishi mumkin. Malayziyada xorijiy valyuta tushumlari bo'yicha mehmondo'stlik sanoati ikkinchi o'rinni egallaydi. Bundan tashqari, mazkur mamlakat 1969-yildan buyon Islom Hamkorlik Tashkiloti (IHT)ga a'zo hisoblanadi. Malayziya Janubiy-Sharqiy Osiyoda joylashgan bo'lib, aholisi qariyb 34 milliondan oshiq. Malayziyaning har bir shtatida turistlar tashrifi uchun mashhur ziyoratgohlar mavjud. Hukumat turizmni rivojlantirishga katta e'tibor qaratadi, chunki bu soha mamlakat iqtisodiyotiga yuqori daromad keltiradi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda Malayziyaga jami 25 milliondan ortiq xorijiy sayyoh tashrif buyurgan.

Mamlakatda "islomiy" yoki "ziyosat" turizmini tashkil etishda, avvalo, islom diniga e'tibor qaratilgan. Islom shunchaki din emas, balki kundalik hayot tarzi sifatida xizmat ko'rsatishning har bir bosqichiga singdirilgan. Sayyohlar islom qoidalariga muvofiq dam olishlari va hordiq chiqarishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgan. Mazkur yo'nalish moslashuvchanlik, oddiylik va muvozanatlilik tamoyillariga asoslangan. Malayziyada ziyoratchilar tashrif buyurishi mumkin bo'lgan masjidlar, muzeylar, universitetlar, islom maktablari, tematik parklar va turli diniy obidalar joylashgan. Ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda mamlakat hududida 6800 dan ortiq masjid, 13 000 ga yaqin madrasa va namozxonalar mavjud. Malayziyada islomiy turizm taraqqiyotiga hissa qo'shadigan bir qator omillar mavjud bo'lib, ular quyidagilar:

1. Ibodat qilish joylari. Malayziyada turistlar va mahalliy aholiga xizmat ko'rsatuvchi masjidlar soni yetarli.
2. Halol oziq-ovqat. Oziq-ovqatlarning "halol" standartlarga mos kelishi musulmon ziyoratchilar uchun muhim, shu sababli umumiy ovqatlanish shoxobchalari, restoranlar va yetkazib beruvchilar bunga katta e'tibor qaratadi.
3. Xizmatlarning ayollar va erkaklarga alohida klassifikatsiya qilinganligi. Xizmatlar islom qoidalariga mutanosib bo'lishi uchun xizmat turlari ayollar va erkaklarga alohida shakllantirilgan.
4. Spirtli ichimliklarning taqiqlanganligi. Spirtli ichimliklardan tortib, ularning savdosi islomiy turizm xizmatini ko'rsatuvchi obyektlarda taqiqlangan.
5. Qimorning taqiqlanganligi. Turistik obyektlarda qimor va unga bog'liq har qanday faoliyat taqiqlangan.
6. Xizmat ko'rsatuvchilar uchun maxsus dress-kod. Turistik obyektlarda xizmat ko'rsatuvchi ayol va erkaklar islom qoidalariga muvofiq kiyinishlari islomiy turizmni rivojlantirishga o'z hissasini qo'shadi [15].

Bundan tashqari, Malayziya turoperatorlari assotsiatsiyasi ASITA, "Aldo Holidays" sayyohlik kompaniyasi, Indoneziya Ulamolalar Kengashi raisi vakili, "Fayyash Travel & Tours" kompaniyasi, Islomiy turizm tadqiqotlar markazi bilan muzokaralarda ziyorat turizmi va "Umra Plus" yo'nalishida Indoneziyadan sayyohlar oqimini O'zbekistonda oshirish masalalari Turizm qo'mitasi bilan hamkorlikda amalga oshirib borilmoqda. "Umra Plus" dasturi Malayziyaning "Air Asia" aviakompaniyasi bilan hamkorlikda amalga oshirilishi ko'zda tutilgan. "Umra



Plus” dasturi doirasida Malayziya fuqarolarini O‘zbekistonga olib kelish uchun sayyohlik paketlarini yanada chuqurroq ishlab chiqish nazarda tutilgan bo‘lib, Haj va Umra yo‘nalishini birlashtirgan holda avval kichik haj sifatida O‘zbekiston islom sivilizatsiyasiga o‘z hissasini qo‘shgan olimlarning maqbaralariga ziyoratlar amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan.

Turizm qo‘mitasi O‘zbekistonning Kuala-Lumpurda elchixonasida Malayziya turizm assotsiatsiyalari, xususan Islom turizm markazi (ITC), Malayziyadagi Bumiputera turoperatorlari assotsiatsiyasi (BIMUTRA), Umra va Haj sayohatlari bo‘yicha mamlakatning yetakchi turizm korxonalarini vakillari bilan kelishuvlar olib borib, O‘zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratgan holda o‘zaro sayyohlar oqimini ko‘paytirish bo‘yicha hamkorlik kelishuvlarini o‘rnatgan. Malayziya aholisi uchun ham “Umra Plus” paketlarini tashkil etish va amalga oshirish, shuningdek, transcheharaviy yo‘nalishlarni joriy etish va muvaffaqiyatli tajribalar bo‘yicha loyihalar rejalashtirilgan.

Dunyoda ziyorat turizmining yillik hajmi 151 milliard dollarga teng. Dunyodagi mehmonxona biznesi peshqadamlaridan biri — Rezidor Hotel Group kompaniyasining ma‘lumotlariga ko‘ra, yaqin 10 yil ichida halol turizm hajmi yiliga 20 foizdan oshib boradi. Global to‘lov tizimining ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biri — Mastercard kompaniyasining Halal Trip turistik portali bilan hamkorlikda o‘tkazgan tadqiqotiga asosan, 2030-yilga borib 15 yoshdan 29 yoshgacha bo‘lgan dunyo yoshlarining uchdan birini musulmonlar tashkil etadi. Bugungi kunda bu yoshdagilar yiliga 2–5 marta, o‘rtacha 4–6 kunlik sayohatga chiqmoqda. 2025-yilga kelib, yosh musulmonlar dunyo bo‘ylab sayohatlar uchun yiliga 100 milliard dollardan ko‘proq mablag‘ sarflashi bashorat qilinmoqda. Butun jahonda islom diniga e‘tiqod qiluvchi 1,8 milliard aholi istiqomat qiladi, shundan qariyb 150 millioni har yili sayohatga chiqadi. O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish, ayniqsa, ziyorat turizmi salohiyatini kengaytirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Jahon Sayohat va Turizm Kengashi (WTTC) tomonidan “Sayohat va sayyohlik sanoatining iqtisodiy natijalari” bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlarda respublikamiz sayyohlik sohasi jadal taraqqiy topayotgan besh davlatning biri sifatida qayd etilgan. Turizm nafaqat iqtisodiy rivojlanish hamda yalpi ichki mahsulot hajmining ortishi, balki aholi bandligini ta‘minlash, turmush darajasi va sifatini oshirish, yurt farovonligi va taraqqiyoti yuksalishiga ham katta ta‘sir ko‘rsatadi. Mutaxassislarining hisob-kitoblariga ko‘ra, har 30 nafar sayyoh mamlakat turizmi sohasida bitta, unga turdosh tizimlarda esa ikkita yangi ish o‘rnini yaratishga turtki beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida turizmi jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5611-son²li Farmoni 5-illovasiga ko‘ra, 2019-yilning 5-yanvaridan O‘zbekistonning madaniy-tarixiy va diniy-ma‘naviy merosi hamda an‘analarini o‘rganish uchun tashrif buyuruvchi xorij fuqarolariga 2 oygacha bo‘lgan muddat bilan beriluvchi Pilgrim viza joriy etildi [1].

2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma‘rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida “Ziyorat va an‘anaviy turizmi rivojlantirish mumkin bo‘lgan yo‘nalishlardagi madaniy meros va arxitektura obyektlari sonini 800 taga yetkazish hamda bu orqali ularning holatini yaxshilash” vazifasi qo‘yilgan.

Davlatlar bilan ziyorat turizmi yo‘nalishida hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish muhim rol o‘ynaydi. Albatta, bu borada O‘zbekiston–Malayziya hamkorligi doirasida “ziyosat turizmi”, “muslim friendly” va “halal tourism” standartlarini rivojlantirish muhim o‘rin tutmoqda. Shuningdek, O‘zbekiston–Pokiston, O‘zbekiston–Turkiya, O‘zbekiston–Saudiya Arabistoni, O‘zbekiston–BAA hamkorligi ham salmoqli. Xususan, Malayziya va Indoneziyalik ziyoratchilar Turkiya orqali Umruga qatnashdan ko‘ra, Samarqanddagi Imom al-Buxoriy, Imom al-Moturidiy ziyoratgohlarini ziyorat qilib, Makkaga borishni afzal ko‘rmoqdalar. Bu borada ular O‘zbekistonda bir hafta vaqtlarini o‘tkazib, to‘g‘ridan to‘g‘ri Jakarta–Samarqand–Jidda aviareysini kengaytirish bo‘yicha “Uzbekistan Airways” AJ va Turizm qo‘mitasi bilan hamkorlikda ishlar olib bormoqdalar [16].

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshida Din ishlari bo‘yicha qo‘mita huzurida ziyorat turizmini rivojlantirish bo‘limi tashkil etilib, Malayziya, Turkiya, Indoneziya kabi davlatlar uchun vizasiz rejim joriy etildi. Prezidentning 2019-yil 5-yanvardagi qarori bilan 2019-yilning 1-fevralidan qo‘shimcha 45 davlatga vizasiz rejim joriy qilindi va 2019-yil 15-martdan elektron viza taqdim etiladigan mamlakatlar soni 76 ta davlatga, 2025-yil bugungi kun holatiga ko‘ra esa 100 ta davlatga yetkazildi. Bu esa yurtimizga keluvchi sayyohlar sonining keskin ortishiga ta‘sir ko‘rsatadi. Ziyorat turizmi masalasida Indoneziya, Malayziya, Pokiston va Turkiyaning tegishli vazirlik hamda idoralari bilan jadal ishlar olib borilmoqda. Keyingi ikki yil ichida Indoneziya va Malayziyadan ilk ziyoratchi guruhlarning Buxoro, Samarqand va Toshkentdagi tarixiy qadamjolariga tashriflari tashkil etildi [17].

Biz O‘zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishda xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish va qo‘llashda o‘zining yirik muzeylari bilan mashhur davlatlarni o‘rgandik. Bular Qohiradagi Islom san‘ati muzeyi, Qatarining poytaxti Doha shahrida joylashgan Islom san‘ati muzeyi, Kanada davlati Toronto shahrida joylashgan Og‘a Xon muzeyi, Istanbulning Fotih tumanida joylashgan Turk va Islom san‘ati muzeyi hamda Berlin shahrida joylashgan

2 <https://lex.uz/docs/-4143188>



Pergamon muzeyidir. Bu muzeylarga yillik tashriflar o'rtacha 10 mln sayyohni qamrab olib, ziyorat manzili sifatida namoyon bo'ladi. Islom san'ati muzeylari mavjud bo'lgan davlatlar tajribasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, yurtimizda ham salohiyat bor, shu formatda ziyorat turizmi dasturlarini ishlab chiqish va xalqaro turizm bozorida targ'ib qilish lozim. Bunga misol tariqasida Toshkent shahrida barpo qilinayotgan yirik loyihalardan biri bo'lgan Islom sivilizatsiyasi markazini keltirish mumkin. Bizning tadqiqotimizda aynan shu mega loyihani o'rganish, uni hududiy ziyorat turizmi manzili sifatida sayyohlik dasturlariga kiritish va xorijiy sayyohlarni jalb qilishga ko'maklashish nazarda tutiladi (3-jadval).

3-jadval. Islom san'ati to'plamlari bo'yicha eng yirik muzeylar beshtaligi³

№	Islom san'ati muzeylar nomi	Obyekt tasnifi
1.	Islom san'ati muzeyi (Qohira, Misr)	Qohiradagi Islom san'ati muzeyi dunyoning eng ulkan muzeylaridan biridir. U o'zining noyob va kamdan-kam uchraydigan yog'och ishlovlari, artefaktlar, keramikalar, shisha, kristallar va matolar bilan butun islom dunyosidan to'plangan buyumlar bilan mashhur. Yillar davomida muzeyda 2500 dan ortiq artefaktlar 25 galereyada namoyish etilgan bo'lsa-da, muzeyda 102 000 dan ortiq buyum mavjud.
2.	Islom san'ati muzeyi (Doha, Qatar)	Qatarning poytaxti Doha shahrida joylashgan ushbu muzey 1980 yillarning oxirlaridan boshlab to'plangan artefaktlar bilan tanilgan. Ushbu muzeyda dunyodagi eng katta islom san'ati kolleksiyalari jamlangan bo'lib, bu muzey 1400 yil davomida uch qit'ada musulmon san'ati va artefaktlarini namoyish etadi. Ba'zi artefaktlar Ispaniya, Iroq, Eron, Hindiston, Turkiya, Misr va Markaziy Osiyodan keltirilgan.
3.	Og'a Xon muzeyi (Toronto, Kanada)	Bu muzeyda islom san'ati hamda Eron san'atiga doir noyob topilmalar jamlangan va u Toronto shahrida joylashgan. Muzeyda islom tarixining barcha davrlaridan olingan san'at asarlari va meroslarining to'plami mavjud. Og'a Xonning shaxsiy to'plamlari, Londonning Islom tadqiqotlari instituti va Sadridin Og'a Xonning oilaviy to'plamlari ham shular jumlasidan.
4.	Turk va Islom san'ati muzeyi (Istanbul, Turkiya)	Istanbulning Fotih tumanida joylashgan ushbu muzey 1524 yilda qurilgan va avval Pargali Ibrohim Poshshoning saroyi bo'lgan. Muzeyda muhim islom xattotlik san'ati, plitkalar, gilamlar va turli turk madaniyatlarini namoyish etuvchi etnografik ko'rgazmalar mavjud.
5.	Pergamon muzeyi (Berlin, Germaniya)	Pergamon muzeyi Berlin shahrida joylashgan bo'lib, 1910-1930 yillarda qurilgan. Muzey ikki qismga bo'lingan: Yaqin Sharq muzeyi va Islom san'ati muzeyi. Har yili bir milliondan ortiq odam muzeyga tashrif buyuradi. Muzey Germaniyadagi eng ko'p tashrif buyurilgan san'at muzeyi sifatida e'tirof etiladi. Muzeyda VII-XIX asrlar orasidagi artefaktlar, Ispaniyadan Hindistongacha bo'lgan mintaqalardan keltirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi binosida O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi tarixi muzeyi alohida o'rin tutadi. Birinchi qavatda ilmiy-tadqiqot markazi, ma'lumotlarni raqamlashtirish va restavratsiya ishlari laboratoriyalari, muzey eksponatlari hamda nodir qo'lyozmalar fondi joylashgan. Ikkinchi qavatda 15 000 kvadrat metrlik ko'rgazma zaliga ega muzey jihozlanadi. Unda buyuk ajdodlarimizning ijodiy salohiyatini ko'rsatib beruvchi turli davrlarga tegishli eksponatlar va artefaktlar tematik tartibda namoyish etiladi. Ularning namoyishi uchun so'nggi avlod texnologiyalari va raqamli uskunalar qo'llaniladi. Muzey markazida, 64 metrlik gumbaz ostida Usmon Qur'oni joylashadi. Usmon Qur'oni — islom dunyosining ulug' va bebaho yozma yodgorligi hisoblanadi. Shu qavatda alohida kirish qismiga ega bo'lgan, 550 o'rinli xalqaro anjumanlar uchun mo'ljallangan ko'rkam zal jihozlanadi. Uchinchi qavatda 100 ming qo'lyozma va litografiya, milliondan ortiq kitob fondiga ega kutubxona joylashadi. Shu qavatning o'zida Islom sivilizatsiyasi markazining ilmiy bo'limlari, O'zbekiston musulmonlari idorasi va Xalqaro islom akademiyasi joylashadi. Islom sivilizatsiyasi markazi tarkibiga quyidagilar kiradi: ilmiy-tadqiqot bo'limlari, nodir qo'lyozmalar milliy reyestrini yuritish bo'limi, qo'lyozmalar fondi, kutubxona va arxivlar, xalqaro bo'lim, ziyorat turizmi, manbashunoslik va nashriyot faoliyati bo'limlari. Markaz binosida restavratsiya laboratoriyalari, ustaxonalar, artefaktlar va qo'lyozmalar uchun izolyatorlar, qo'lyozmalar hamda qimmatli nashrlarni tarjima qilish va kodlash bo'limlari ham jihozlanadi.

O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi oldida turgan asosiy vazifalar UNESCO, ICESCO, IRCICA kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar ko'magida dinlararo va madaniyatlararo muloqotni yo'lga qo'yishga hissa qo'shishdan iborat. Islom sivilizatsiyasi markazi faoliyatini boshqarish va muvofiqlashtirish uchun O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A. N. Aripov rahbarligida Vasiylar kengashi tashkil etilgan. Vasiylar kengashi a'zolari

3 Muallif jamlanmasi asosida tuzilgan



davlat arboblari, yetakchi olimlar, mashhur metsenatlar, san'at arboblari, tarixchilar va boshqalardan iborat. Ayni paytda Islom sivilizatsiyasi markazi ko'p qirrali faoliyat olib bormoqda: muzey ekspozitsiyasi qayta ko'rib chiqilmoqda va takomillashtirilmoqda, kutubxona fondi shakllantirilmoqda, zamonaviy texnologiyalar, shu jumladan sun'iy intellekt va immersiv ekspozitsiya zallarini yaratish imkoniyatlari o'rganilmoqda. Qo'lyozma va kitob fondlarini kodifikatsiya qilish va raqamlashtirish, arxiv hamda mediamarkaz tashkil etish ishlari amalga oshirilmoqda. O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi belgilangan vazifalar va maqsadlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun mashhur ilmiy va madaniy muassasalar, olimlar va tadqiqotchilar bilan keng ko'lamli xalqaro hamkorlik aloqalarini o'rnatgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, xalqaro ziyorat tashkilotlari, ziyorat turizmini rivojlantirishda musulmon davlatlar tajribalari, jahon pog'onasida musulmon sayohatlar davlatlari reytinglari ko'rsatkichlari hamda O'zbekiston ziyorat turizmi resurslari salohiyatidan kelib chiqib, hududiy ilmiy ziyorat turizmi turistik dasturini ishlab chiqish maqsadi qo'yilgan. O'zbekistonning ziyorat turizmi salohiyatini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mamlakatimiz xalqaro GMTI reytingida diniy erkinlik va xavfsizlik bo'yicha yuqori o'rinlarni egallab kelmoqda. Biroq Indoneziya va Malayziya kabi davlatlar tajribasi shuni tasdiqlaydiki, soha muvaffaqiyati faqatgina tarixiy obidalar bilan emas, balki "halol" standartlarining barcha xizmat ko'rsatish bosqichlariga (transport, mehmonxona, oziq-ovqat) to'liq tatbiq etilishi bilan bog'liqdir. Ayniqsa, Toshkentda barpo etilayotgan Islom sivilizatsiyasi markazi dunyodagi yirik Islom san'ati muzeylari kabi mintaqaviy ziyorat "hub"iga aylanishi va "Umra Plus" dasturlari orqali ziyoratchilar oqimini diversifikatsiya qilishi uchun ulkan metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Sohani takomillashtirish bo'yicha quyidagi takliflarni keltirib o'tamiz:

- Halol sertifikatlashtirish tizimini soddalashtirish: Indoneziya tajribasiga tayanib, umumiy ovqatlanish va mehmonxona xo'jaliklarida "halol" standartlarini ixtiyoriy-majburiy tartibda joriy etish va ularning xalqaro darajada tan olinishini ta'minlash.

- "Umra Plus Uzbekistan" paketlarini kengaytirish: Saudiya Arabistoni va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlikda "Makka – Madina – Toshkent – Samarqand – Buxoro" tranzit yo'nalishlarini keng targ'ib qilish hamda viza va aviachiptalar bo'yicha maxsus chegirmalar joriy etish.

- Raqamli ziyorat platformasini yaratish: Islom sivilizatsiyasi markazi va boshqa muqaddas qadamjolar haqida to'liq ma'lumot beruvchi, ko'p tilli interaktiv xaritalar va audio gidlar tizimini (Smart Pilgrimage) rivojlantirish.

- Infratuzilmani moslashtirish: transport tugunlarida (vokzal, aeroport) va turistik obyektlarda xalqaro standartlarga mos tahoratxonalar va namozxonalarni ko'paytirish, shuningdek, kadrlar tayyorlashda Malayziya tajribasidagi "ziyosat etikasi" kurslarini joriy etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5611-sonli Farmoni // URL: <https://lex.uz/docs/-4143188>
2. Battour, M., & Ismail, M. N. (2016). Halal tourism: Concepts, practises, challenges and future. *Tourism Management Perspectives*, Vol. 19, 150-154-betlar.
3. Provincial Government of West Nusa Tenggara. (2016). Regional Regulation (Perda) No. 2 of 2016 on Halal Tourism. (Indoneziya halol turizm qonunchiligi).
4. Mastercard-CrescentRating. (2019). Global Muslim Travel Index 2019. (O'zbekistonning reytingda 10 pog'onaga ko'tarilgan yili).
5. Indonesian Ministry of Tourism. (2017). Strategy of Development of Halal Tourism and Umrah Plus Program. Jakarta.
6. The Museum of Islamic Art (MIA). (2008-2023). Annual Reports and Visitors Statistics. (Doha, Qatar va boshqa xalqaro muzeylar tajribasi bo'yicha).
7. Exploration of pilgrimage tourism in Indonesia <https://www.researchgate.net/publication/334997876>
8. Laderlah, Siti Anis, et al. "A study on Islamic tourism: Malaysian experience". 2nd international conference on humanities, historical and social sciences. Vol.17. 2011.
9. 2025 Cabinet Secretariat of the Republic of Indonesia <https://setkab.go.id/en/indonesia-tourism-sector-shows-positive-growth-in-2024/>
10. Indoneziyaning O'zbekiston bilan turizm aloqalari (<https://zamin.uz>).
11. <https://www.crescentrating.com/rating-accreditations/hotels.html>
12. Mastercard & CrescentRating. (2022). Global Muslim Travel Index 2022: The Outlook for the Muslim Travel Market. (2026-yilga oid prognozlar ushbu hisobotga asoslangan) <https://www.crescentrating.com/>
13. Astanakulov Olim Tashtemirovich va boshqalar. O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishda xalqaro tajribadan foydalanish: Malayziya misolida. *Scientific Journal of "International Finance & Accounting"* Issue 6, December 2023. ISSN: 2181-1016
14. Laderlah, Siti Anis, et al. "A study on Islamic tourism: a Malaysian experience". 2nd international conference on humanities, historical and social sciences. Vol. 17. 2011.



15. Мўминов А. Ўзбекистонда экологик туризмнинг ривожланиш жараёнлари (1991-2020). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертация. – Тошкент, 2021. – Б. 124.
16. <https://yuz.uz/news/uzbekistonda-viza-rejimini-soddalashtirilishi-turizm-sohasi-oldida-misli-korilmaganimkoniyatlarni-ochdi>.
17. Рахимова Д. М. Роль Религиозного Туризма В Экономике Узбекистана //Green Economy and Development. – Т. 1. – №. 10. – С. 662221.
18. Рахимова, Дилфуза Мирзакасимовна. «Роль Религиозного Туризма В Экономике Узбекистана.» Green Economy and Development 1.10: 662221.
19. Хушназарова, М. Г. «Туристское образования и проведение научных исследований за рубежом.» Архив научных исследований 2.1 (2022).
20. Хушназарова, Махзуна Гуламджановна, et al. «Краткий обзор истории Азиатского города Самарканд.» Academic research in educational sciences 2.2 (2021): 835-842.
21. Narzullaeva, Umidakhon. «Main Features OF Smart Tourism Organization.» Green Economy and Development 1.10: 662797.
22. Narzullaeva, Umidakhon Nodir Qizi. «The development of youth entrepreneurship as a driving force for long term development strategy in Uzbekistan.» Актуальные проблемы экономической деятельности и образования в современных условиях. 2020.
23. Рахимова, Дилфуза Мирзакасимовна. «ЎЗБЕКИСТОННИНГ ТУРИСТИК САЛОҲИЯТИ, ПРОФЕССИОНАЛ КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ БОРАСИДА ИНТЕГРАЦИЯЛАШГАН ТИЗИМНИ ЯРАТИШ.» Архив научных исследований 2.1 (2022).
24. Рахимова, Д. М. «МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ УПРАВЛЕНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКИМ ТУРИЗМОМ.» Архив научных исследований 2.1 (2022).
25. Rasulova, Nigora. «O 'zbekistonda Yashil Turizmni Rivojlantirish Istiqbollari.» Green Economy and Development 1, no. 7: 663269.
26. Rasulova, N. Ozbekistonda "Yashil Energetika" ni Rivojlantirish Va Samaradorligini Oshirish Yo 'nalishlari. Nashrlar, 440-443.
27. Khushnazarova, Makhzuna, et al. «Cognitive Radio Network Applications in Mountain Tourism: A Case Study of Uzbekistan's Mountainous Regions.» Proceedings of the 8th International Conference on Future Networks & Distributed Systems. 2024.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
